

SOFOKLNING "SHOH EDIP" TRAGEDIYASIDA TAQDIR VA INSON IRODASI.

Boqijonova Mashhudaxon

Farg'ona davlat universiteti , Filologiya fakulteti talabasi

Abdullayeva Gulnozaxon

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda antik yunon adabiyotining cho'qqisi hisoblangan Sofoklning "Shoh Edip" fojiasi tahlil etiladi. Maqolada asarning kompozitsion mukammalligi, qahramonning tragik fojiasi hamda inson irodasining muqarrar qismat bilan to'qnashuvi masalalari tadqiq qilingan.*

Kalit so'zlar: *Sofokl, "Shoh Edip", antik tragediya, fojia, taqdir, erkin iroda, shoh, ilohiy, Apollon peripetiya, Edip kompleksi, Aristotel poyetikasi, dramatik ironiya, ramziy ko'rlik.*

Аннотация: *В данном исследовании анализируется трагедия Софокла «Эдип царь», которая считается вершиной древнегреческой литературы. В статье рассматривается композиционное совершенство произведения, трагическая судьба героя и конфликт человеческой воли с неизбежной судьбой.*

Ключевые слова: *Софокл, «Эдип царь», античная трагедия, трагедия, судьба, свобода воли, царь, божественное, перипетия Аполлония, эдипов комплекс, поэтика Аристотеля, драматическая ирония, символическая слепота.*

Antik davr dramaturgiyasining nodir namunasi bo'lgan "Shoh Edip" fojiasi insoniyat tarixidagi eng mukammal dramatik asarlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Sofokl ushbu asar orqali insonning koinotdagi o'rni, ilohiy qismat va shaxsiy mas'uliyat o'rtasidagi azaliy ziddiyatni badiiy tahlil markaziga qo'yadi.

Asar tuzilishi jihatidan Aristotel tomonidan "ideal tragediya" namunasi deb topilgan bo'lib, unda voqealar rivoji va haqiqatni anglash lahzalari bir nuqtada birlashadi. Shoh Edip tragediyasidagi barcha voqealar zanjirini harakatga keltiruvchi asosiy omil — bu Delfi ibodatxonasidagi Apollon kohini (orakul) tomonidan aytilgan mudhish bashoratdir. Ushbu ilohiy hukm birinchi bo'lib Fiva podshohi Layga, so'ngra uning o'g'li Edipga qarata aytiladi.

Bashoratning mohiyati shundan iborat ediki, dunyoga kelajak farzand o'z otasini o'ldirib, onasiga uylanishi va bu nikohdan la'natlangan zurriyotlar tug'ilishi muqarrar edi. Uning ota-onasi Lay va Iokasta — o'z farzandidan voz kechib, taqdirni aldamoqchi bo'lgan, biroq yillar o'tib o'sha xatosining qurboniga aylangan obrazlardir. Ularning fojiasi

shundaki, ular ilohiy hukmdan qochib bo'lmashligini kech anglab yetishadi. Edip – aqlli, mas'uliyatli, haqiqatgo'y va hatto mag'lub bo'lganida ham insoniy g'ururini saqlab qolgan mard inson. U o'z taqdiriga tik boqa olgan shaxsdir. Yiqilganida ham insoniy qadr-qimmatini saqlab qoladi. Inson o'z qismatini o'zgartira olmasa-da, unga nisbatan bo'lgan munosabati va mardona kurashi bilan taqdirdan ustun tura oladi. Fiva shahrida boshlangan mudhish vabo epidemiyasi asar voqealari rivojiga turtki beradi.

Shahar xalqi o'z najotkori, o'z vaqtida Sfinks topishmog'ini topib taxtni egallagan shoh Edipdan yordam so'raydi. Edip xalqiga sodiqligini ko'rsatish uchun ushbu ofatning sababini aniqlashga kirishadi va kulfatning ildizi sobiq shoh Layning qotili shaharda yashirilib yurganida ekanini biladi. Qahramonning qotilni topish va uni jazolash haqidagi qat'iy qasamyodi asardagi "dramatik ironiya" usulining eng yorqin namunasi: qahramon o'zi qidirayotgan jinoyatchi aslida o'zi ekanligidan bexabar holda o'z-o'ziga hukm o'qiydi.

Asar davomida Edipning o'tmishi bilan bog'liq haqiqatlar bosqichma-bosqich oydinlashib boradi. U o'z otasini o'ldirishi va onasiga uylanishi haqidagi dahshatli bashoratdan qochib, o'zi o'sib-ulg'aygan o'lkani tark etgan bo'lsa-da, aynan shu harakati uni kutilgan fojeaga yetaklaydi. Sofokl bu orqali inson irodasining taqdir oldidagi o'zligini emas, balki qismatning muqarrarligini ko'rsatadi. Edipning o'z aql-zakovatiga bo'lgan haddan tashqari ishonchi, uni ma'lum vaqt davomida ma'naviy ko'rlikda ushlab turadi. Ko'r bashoratchi Tiresiyning achchiq haqiqatlarini rad etishi qahramonning mag'rurligidan dalolat beradi.

Biroq, haqiqat to'liq fosh bo'lgach, ya'ni Edip o'zining ham qotil, ham qurbon ekanini anglagach, asar kulminatsiyasi — poklanish jarayoni yuz beradi. Edipning o'z ko'zlarini o'yib olishi — bu shunchaki jismoniy jazo emas, balki uning ma'naviy haqiqatni ko'rishga o'tishining ramziy ifodasidir. U jismoniy ko'rishdan voz kechish orqali haqiqiy ma'rifatga va ichki ozodlikka erishadi. Bu jismoniy azob uning o'z aybi uchun mas'uliyatni to'liq bo'yniga olishini anglatadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Sofoklning ushbu fojiasi insonning o'zligini anglash yo'lidagi og'riqli, ammo buyuk g'alabasini aks ettiradi. Unda tasvirlangan inson va qismat o'rtasidagi kurash bugungi kun o'quvchisi uchun ham o'zining ma'naviy-axloqiy darsi bilan ahamiyatlidir.

Asqad Muxtor tarjimasini orqali milliy adabiyotshunosligimizdan mustahkam o'rin olgan ushbu asar, insoniyatning borliq, adolat va javobgarlik haqidagi abadiy savollariga javob izlovchi o'lmas meros bo'lib qolaveradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Sofokl. Shoh Edip. (Asqad Muxtor tarjiması). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978.
- 2.Aristotel. Poetika. (Rus tilidan o‘zbekcha tarjima). – Toshkent: Fan nashriyoti, 1980.
- 3.Hoshimov O. Jahon adabiyoti durdonalari. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2001.

